



ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION RIVOJLANISH VA YANGI AVLOD KOMPDENSIYALARI

Po'latova Marjona Asadullayevna

*Perfect-university "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi
2-kurs talabasi*

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion rivojlanish jarayonlari hamda yangi avlod kompetensiyalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlardan foydalanish va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quvchilarning kreativ fikrlashi, tanqidiy tafakkuri, kommunikativ hamda axborot-kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati yoritib beriladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida ta'lim sifatini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislarni tayyorlashning dolzarbligi asoslab beriladi. Maqolada zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlari, yangi avlod kompetensiyalarining mazmun-mohiyati va ularni shakllantirish mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi.

Annotation: this article analyzes the processes of innovative development in the modern education system and the formation of new generation competencies. It highlights the importance of introducing digital technologies in education, using interactive methods, and developing students' creative thinking, critical thinking, communication, and information and communication competencies based on a learner-centered approach. Furthermore, the relevance of improving the quality of education, applying innovative pedagogical technologies, and preparing competitive and independently thinking specialists in the context of globalization is substantiated. The article also examines the priority directions of the modern education system, the essence of new generation competencies, and the mechanisms for their formation from a scientific and theoretical perspective.

Аннотация: я данной статье анализируются процессы инновационного развития современной системы образования и формирование компетенций нового поколения. Освещается необходимость внедрения цифровых технологий в образовательный процесс, использования интерактивных методов и развития у обучающихся креативного мышления, критического мышления, коммуникативных и информационно-коммуникационных компетенций на основе личностно-ориентированного подхода. Также обосновывается актуальность повышения качества образования, применения инновационных педагогических технологий и подготовки конкурентоспособных специалистов, способных к самостоятельному мышлению, в условиях глобализации. В статье



рассматриваются приоритетные направления современной системы образования, сущность компетенций нового поколения и механизмы их формирования с научно-теоретической точки зрения.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, ta'limni modernizatsiya qilish, uzluksiz ta'lim, masofaviy ta'lim, talimda integratsiya, XXI asr ko'nikmalari, innovatsion rivojlanish, STEAM, kreativlik.

Keywords: digital transformation, modernization of education, lifelong learning, distance education, integration in education, 21st century skills, innovative development, STEAM education, creativity.

Ключевые слова: модернизация образования, цифровая трансформация, дистанционное обучение, непрерывное образование, навыки XXI века, интеграция в образовании, STEAM-образование, инновационное развитие, креативность.

Bugungi kunda ta'lim tizimi global o'zgarishlar, raqamlashtirish va texnologik taraqqiyot ta'sirida tubdan yangilanmoqda. XXI asr ta'limi faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyaviy model asosida tashkil etilmoqda.

Innovatsion rivojlanish — bu ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar, metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish jarayonidir. Bugungi kunda ta'limda quyidagi innovatsiyalar keng qo'llanilmoqda: STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, kreativlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Elektron platformalar, onlayn kurslar va sun'iy intellekt asosidagi tizimlar ta'lim samaradorligini oshirmoqda. Innovatsion rivojlanishning maqsadi:

Ta'lim sifatini oshirish

O'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish

Mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlash

Zamonaviy ta'lim sifati xalqaro darajada ham baholanadi. Masalan:

Programme for International Student Assessment (PISA) – o'quvchilarning funksional savodxonligini baholaydi.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasini aniqlaydi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Shuningdek ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kun sayin kuchayib bormoqda.

Ushbu maqolada, zamonaviy ta'lim tizimida o'zbek tilini o'qitish texnologiya va innovatsiyalari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Bugungi ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini yanada takomillashtirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi va talabalarining o'quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi ⁶. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishidir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi texnologiyalarni tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zarur. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi ⁷.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'zbek maktabi uchun yangi, u asosiy e'tiborni o'rganish natijasiga qaratadi, natijada esa bilimlar yig'indisi emas, balki ko'nikmalar yig'indisi, o'quvchining muammolarni, konfliktlarni hal qilish, turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidir.

Erkin, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida e'tirof etilayotgan hozirgi kunda nutq madaniyatining ahamiyati juda katta. Zero ta'lim va tarbiya berishda asosiy vosita, qurol til sanaladi. Nutq madaniyatini o'stirish faqat filologiya sohasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ish bo'lmasdan, g'oyaviy-siyosiy, ma'rifiy ishlarning ham eng muhim tomonlaridan birini tashkil etadi. Har bir inson uchun o'z milliy tilini o'rganish hayotiy ehtiyojdir. Ma'lumki, har bir shaxsda nutq madaniyatining yuksalishi milliy til sirlarini o'rganish, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri gapirish va yozish, tilning leksik va grammatik birliklaridan o'rinli va maqsadga muvofiq tarzda foydalana olish omillariga bog'liq. O'zbek abadiy tili-har qaysi xalq va millat ma'naviyatida ulkan ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtning birlashtirish, o'zlikni anglashda muhim vosita bo'ladigan buyuk ijtimoiy

⁶ Abduraxmonov G, Shukurov Sh, O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. 2018.

⁷ Azizxo'jayeva.N. Pedagogik texnologiyalar va prdagogik mahorat.2022-yil



hodisa. Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan, lekin, fonetik va grammatik juhatdan shu xalq shevalaridagi eng yaxshi xususiyatlarni o'zida mujassam etib, sayqallangan, hamma uchun tushunarli va ma'qul me'yorga solingan umummilliy muloqot vositasidir. Tarix va taraqqiyot jarayonida adabiy til o'zgarib, takomillashib boradi. Masalan, Alisher Navoiy davridagi o'zbek adabiy tili hozirgi zamon o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Istiqlol davrida adabiy tilning ma'naviy hayotimizdagi o'zni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Odamlar har doim noma'lum va yangi narsalardan qo'rqib ketishgan, ular har qanday o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lishadi. Ommaviy ongda mavjud bo'lgan, odatiy turmush tarziga ta'sir qiluvchi stereotiplar og'riqli hodisalarga olib keladi, ta'limning barcha turlarini yangilashga to'sqinlik qiladi. Odamlarning zamonaviy ta'limdagi yangiliklarni qabul qilishni istamasligining sababi qulaylik, xavfsizlik va o'zini o'zi tasdiqlash uchun hayotiy ehtiyojlarni blokirovka qilishdadir. Hamma ham nazariyani qayta o'rganish, imtihon topshirish, fikrini o'zgartirish, shaxsiy vaqt va pul sarflashga tayyor emas. Yangilash jarayoni boshlanganidan so'ng, uni faqat maxsus texnikalar yordamida to'xtatish mumkin⁸. Ta'limdagi innovatsion texnologiyalar ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Odamlar har doim noma'lum va yangi narsalardan qo'rqib ketishgan, ular har qanday o'zgarishlarga salbiy munosabatda bo'lishadi. Ommaviy ongda mavjud bo'lgan, odatiy turmush tarziga ta'sir qiluvchi stereotiplar og'riqli hodisalarga olib keladi, ta'limning barcha turlarini yangilashga to'sqinlik qiladi. Odamlarning zamonaviy ta'limdagi yangiliklarni qabul qilishni istamasligining sababi qulaylik, xavfsizlik va o'zini o'zi tasdiqlash uchun hayotiy ehtiyojlarni blokirovka qilishdadir. Hamma ham nazariyani qayta o'rganish, imtihon topshirish, fikrini o'zgartirish, shaxsiy vaqt va pul sarflashga tayyor emas. Yangilash jarayoni boshlangandan so'ng, uni faqat maxsus texnikalar yordamida to'xtatish mumkin. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ehtiros bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Talabalar tomonidan ulaming yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini

⁸ Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: darslik Bordovskoy. N.



qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslangan avlodning yangi davlat ta'lim standartlari joriy etish talabaning tobora faol ishtirok etishi asosida bir qator fanlarni, shu jumladan o'zbek tilni o'qitish uslublarida sezilarli o'zgarishlarni nazarda tutadi. ta'lim jarayonining to'liq ishtirokchisi, uning katta mustaqilligi, aniq amal iy natijaga qaratilgan mashg'ulotlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonov G, Shukurov Sh. "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi". 2018.
2. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". 2022-yil.
3. Turdieva K, Axmedova D. "O'zbek tili". 2007.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" gi qonuni "O'zbek tilining yangi qonunlari" To'plam 1998, 20-30 bet.
5. Shodmonov E., Rafiev A., G'oyipov "O'zbek tili" (darslik) 1995.
6. Bordovskoy.N. zamonaniy ta'lim texnologiyalari: darslik.

